


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60211500 – Cho'lg'u ijrochiligi (an'anaviy cho'lg'ular)
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60211500 – Cho'lg'u ijrochiligi (an'anaviy cho'lg'ular)

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: SHUKUROV ZAVKIDDIN SHODIKULOVICH

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

—



A'zo: TURATOV SOBIRJON TURDIBEKOVICH

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

—

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260015
Xulosa raqami	902
Xulosa sanasi	30.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4-uy. Litsenziya: № 1965967, 22.04.2008.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Cho'lg'u ijrochiligi (an'anaviy cho'lg'ular)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60211500
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 1965967, 22.04.2008
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60211500 – Cho'lg'u ijrochiligi (an'anaviy cho'lg'ular)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60211500 – Instrumental Performance (Traditional Instruments)
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60211500 – Инструментальное исполнение (традиционные инструменты)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Sozanda, o'qituvchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	—
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Qisman muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Qisman muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha "Musiqiy ta'lim" kafedrasi mas'ul tarkibiy tuzilma sifatida shakllantirilgan bo'lib, yo'nalish umumiy holatda muvofiq deb topilgan. Biroq, 1.3-mezon qisman muvofiq deb baholangan. Kafedra nizomi, vakolat va funksiyalari belgilangan, ta'lim sifati, kadrlar, infratuzilma, raqamlashtirish, ilmiy-tadqiqot, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlikni qamrab olgan istiqbolli reja hamda yo'l xaritasi ishlab chiqilgan. Mehnat bozori ehtiyoji so'rovnomalar va statistik tahlillar asosida o'rganilgan, 2030–2034-yillar monitoringi hisoboti taqdim etilgan hamda kasbiy kompetensiyalardan kelib chiqib "Maqom solfedjio", "Shashmaqom parda asoslari" kabi fanlar o'quv rejasiga kiritilgan. 1.3-mezonning qisman muvofiq deb baholanishiga sifatni ichki ta'minlashda manfaatdor tomonlar fikrini inobatga olish mexanizmi mavjud bo'lsa-da, uning amal qilish tartibi, tahlil va o'zgartirishlar kiritish mexanizmlari hamda manfaatdor tomonlarga muntazam axborot yetkazish tartibining yetarli darajada asoslanmagani sabab bo'lgan. Aniqlangan kamchilik tashkiliy-boshqaruv tizimining mazmuniga emas, balki uning jarayonlarini hujjatlar bilan to'liq rasmiylashtirish zarurligiga taalluqli hisoblanadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha ta'lim dasturi mazmunining asosiligi umumiy holatda muvofiq deb topilgan, biroq 2.2-mezon qisman muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturi Davlat ta'lim standarti va Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq, maqsad va natijaviylikka asoslangan holda ishlab chiqilgan. Ish beruvchilar va soha mutaxassislarining takliflari o'quv reja hamda fanlar tarkibida o'z aksini topgan bo'lib, dasturning mehnat bozori ehtiyojlariga yo'naltirilganligi ta'minlangan. Dastur 240 ECTS kredit hajmida, 4 yillik o'qish muddati asosida shakllantirilgan, fanlarning bosqichma-bosqich joylashtirilishi hamda "sozanda, o'qituvchi" kvalifikatsiyasining

belgilanishi dastur tuzilmasining mantiqiy izchilligini ta'minlaydi. O'quv rejasiga xorijiy til, shashmaqom lad-parda asoslari, aruz va musiqa, maqom turkumi kabi fanlarning kiritilgani sohani chuqur o'zlashtirish uchun zarur asosni yaratadi. 2.2-mezonning qisman muvofiq deb baholanishiga dasturning barqaror rivojlanish hamda oliy ta'limni rivojlantirish strategik maqsadlariga muvofiqligini asoslovchi hujjatlar, shuningdek ichki monitoring va ekspert baholash mexanizmlariga oid dalillarning taqdim etilmagani sabab bo'lgan. Shuningdek, xalqaro standartlarga muvofiqlik bo'yicha vakolatli xorijiy ekspert yoki tashkilot tomonidan berilgan rasmiy xulosa (akkreditatsiya) mavjud emasligi qayd etilgan. Aniqlangan kamchilik ta'lim dasturi mazmuniga emas, balki uning strategik va xalqaro muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni hujjatlar bilan asoslash zarurligiga taalluqli hisoblanadi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. O'quv reja va sillabuslar ish beruvchilar hamda soha mutaxassislari ishtirokida, ularning takliflari asosida, Milliy malakalar ramkasi va qonunchilikdagi so'nggi o'zgarishlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. O'quv jarayoni nazariy, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim, malakaviy amaliyot va bitiruv ishi kabi tarkibiy qismlar orqali bosqichma-bosqich tashkil etilgan. Fanlar ketma-ketligi oddiydan murakkabga, fundamental bilimlardan ixtisoslik va amaliy-tadqiqot faoliyatiga o'tish tamoyili asosida shakllantirilgan. Amaliyot bazalarining mavjudligi, hard va soft ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuv hamda mashg'ulot turlarining fan mazmuniga mosligi ta'lim jarayonining amaliy yo'naltirilganligini ta'minlaydi. Mazkur yondashuv cholg'u ijrochiligi kabi amaliy san'at yo'nalishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Baholashni tashkil etish, apellyatsiya va shikoyatlarni ko'rib chiqish, akademik halollik hamda tadqiqot etikasiga oid tartiblarning mavjudligi ta'lim jarayonida shaffoflik, adolat va xolislikni ta'minlaydi. O'quv jarayoni va baholash tizimi talab darajasida shakllantirilgan bo'lib, aniqlangan ayrim kamchiliklarni hujjatlarni to'liq rasmiylashtirish orqali bartaraf etish mumkin.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Qabul jarayoni, qabul parametrlari, talabalar harakati va qo'llab-quvvatlash tizimi bo'yicha asosiy tartiblar shakllantirilgan. Qabul mezonlari, baholash mezonlari, natijalarni e'lon qilish va apellyatsiya mexanizmlari ichki buyruqlar asosida belgilangan. Qabul jarayonida

avtomatlashtirilgan tizimlar, videokuzatuv hamda natijalarni rasmiy manbalarda e'lon qilish tartibining joriy etilgani jarayonning shaffofligi va ochiqqligini ta'minlaydi. Qabul parametrlari institut infratuzilmasi, auditoriya sig'imi, kompyuter laboratoriyalari va axborot-resurs markazi imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirilgan bo'lib, bu resurslar va talabalar soni o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Talabalarni akademik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlash, shuningdek iqtidorli hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash tartibi amaliyotga joriy etilgan. Talaba-o'qituvchi nisbati bo'yicha alohida tahliliy ma'lumotnoma taqdim etilishi tavsiya etilgan, biroq mazkur holat bobning umumiy muvofiqlik darajasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Talabalar faoliyati yo'nalishi shaffof, adolatli va resurslar bilan muvozanatlashtirilgan ta'lim muhitini ta'minlovchi tizim asosida tashkil etilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha kadrlar salohiyati barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar tarkibi hamda boshqaruv, o'quv-yordamchi va texnik xodimlar salohiyati "Musiqiy ta'lim" kafedrasida shakllantirilgan bo'lib, professor-o'qituvchilar soni yetarli. Shu bilan birga, professor-o'qituvchilarning diplom mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturiga to'liq muvofiqligini ta'minlash yuzasidan tegishli ishlarni davom ettirish zarurligi qayd etilgan. Mazkur masalani hal etish maqsadida Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti bilan tuzilgan memorandum asosida mutaxassisligi mos kadrlarni jalb etish va professor-o'qituvchilar tarkibini qayta shakllantirish imkoniyati yaratilgan. Maxsus cholg'u ijrochiligi yo'nalishida kadrlarning soha mutaxassisligiga mosligi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Yo'l xaritasida doktorantlar bilan ishlash, yosh olimlarni grantlarga jalb etish, "ustoz-shogird" tizimini rivojlantirish, xalqaro maqolalar chop etish, qo'shma doktorantura hamda malaka oshirishni (rektorning 414-U-son buyrug'i) nazarda tutuvchi mexanizmlar belgilangan bo'lib, ular kadrlar zaxirasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Kadrlar siyosati va inson resurslarini rivojlantirish mexanizmlari ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli asos yaratadi, mutaxassislik bo'yicha muvofiqlikni ta'minlash ishlari esa memorandum asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha moddiy-texnik ta'minotning yetarlilik darajasi barcha 7 ta mezon kesimida muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, jumladan musiqiy cholg'ular, laboratoriya xonalari, zamonaviy ovoz yozish studiyasi, smart doskalar, audio tizim hamda elektron kutubxona platformalari shakllantirilgan. Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi uchun ovoz yozish studiyasi va musiqiy cholg'ular bazasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ijrochilik ko'nikmalari amaliy-texnik muhitda shakllantiriladi. Auditoriyalar talabalar soni va mashg'ulot turlariga mos ravishda taqsimlangan, xavfsizlik qoidalari, evakuatsiya sxemalari hamda mehnat muhofazasiga oid hujjatlar mavjud bo'lib, ta'lim jarayonining xavfsizligi ta'minlangan. Inklyuziv ta'lim uchun zarur sharoitlar yaratilgan, xususan, yo'laklar, panduslar va sanitariya xonalari moslashtirilgan, ko'zi ojiz talabalar uchun elektron darsliklardan NVDA dasturi orqali foydalanish imkoniyati yaratilgan. HEMIS platformasi LMS bilan integratsiyalashgan holda o'quv jarayonini boshqarish va mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlaydi. Axborot-resurs markazi hamda sport inshootlari alohida e'tirof etilgan. Moddiy-texnik ta'minot mazkur yo'nalish bo'yicha sifatli va xavfsiz ta'lim jarayonini tashkil etish uchun to'liq yetarli asos yaratadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Sifatni ichki ta'minlashda manfaatdor tomonlar fikrini inobatga olish mexanizmi mavjud bo'lsa-da, uning ishlash jarayoni, tahlil va o'zgartirish usullari hamda muntazam axborot yetkazish tartibi yetarlicha hujjatlashtirilmagan (1.3-mezon qisman muvofiq).
- ✓ Dasturning barqaror rivojlanish va oliy ta'limni rivojlantirish strategik maqsadlariga muvofiqligini asoslovchi hujjatlar hamda ichki monitoring/ekspert baholash mexanizmi to'liq taqdim etilmagan (2.2-mezon qisman muvofiq).
- ✓ Ta'lim dasturining xalqaro standartlarga mosligi bo'yicha vakolatli xorijiy ekspert yoki tashkilot tomonidan berilgan rasmiy xulosa (akkreditatsiya) mavjud emas.

- ✓ Professor-o'qituvchilarning diplom mutaxassisligi bo'yicha dasturga to'liq muvofiqligi masalasida qo'shimcha ishlar talab etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR


- ✓ Sifatni ichki ta'minlash mexanizmining ishlash jarayoni, tahlil va o'zgartirish usullarini hamda manfaatdor tomonlarga axborot yetkazish tartibini to'liq hujjatlashtirish.
- ✓ Dasturning strategik maqsadlarga muvofiqligini asoslovchi hujjatlar va ichki monitoring/ekspert baholash mexanizmlarini rasmiylashtirish.
- ✓ Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti bilan tuzilgan memorandum asosida diplom mutaxassisligi mos professor-o'qituvchilarni jalb etish va tarkibni bosqichma-bosqich qayta shakllantirish.
- ✓ Xalqaro standartlarga moslik bo'yicha rasmiy xulosa/akkreditatsiya elementlarini va xalqaro hamkorlikni bosqichma-bosqich kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universitetida 60211500 – "Cho'lg'u ijrochiligi (an'anaviy cho'lg'ular)" bakalavriat ta'lim yo'nalishini tashkil etish imkoniyati bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, yo'nalishni ochish uchun zarur tashkiliy-normativ asoslar, "Musiqiy ta'lim" kafedrasida tarkibidagi kadrlar salohiyati, DTS va MMR talablariga muvofiq ishlab chiqilgan dastur hamda maxsus moddiy-texnik baza (musiqiy cho'lg'ular, ovoz yozish studiyasi, ARM, inklyuziv sharoitlar) shakllantirilgan. Barcha yo'nalishlar (bob) muvofiq deb topilgan; ayrim mezonlar bo'yicha qisman muvofiqlik qayd etilgan: sifatni ichki ta'minlash mexanizmini jarayoniy hujjatlashtirish hamda dasturning strategik maqsadlarga muvofiqligi va xalqaro standartlarga moslik dalillarini rasmiylashtirish talab etiladi; shuningdek professor-o'qituvchilarning diplom mutaxassisligi bo'yicha muvofiqligi memorandum asosida mustahkamlanishi lozim. Aniqlangan kamchiliklar dastur mazmunining mohiyatini inkor etmaydi va hujjatlarni to'liq rasmiylashtirish orqali bartaraf etilishi mumkin. Umuman olganda, universitetning mavjud salohiyati, kadrlar tarkibi, ta'lim dasturi va infratuzilmasi mazkur yo'nalishni tashkil etish va samarali amalga oshirish uchun yetarli hisoblanadi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

